

## TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Zilola Xojibekova Shavkat qizi**Toshkent Moliya instituti**Pul va banklar*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish, moliya va sanoat kapitali integratsiyasini ta'minlash asosida moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish, bank tuzilmalari samaradorligini tahlil qilish to'g'risida batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, konsepsiya, integratsiya, moliyaviy barqarorlik, diversifikatsiyalashuv.

**Kirish:**

Ma'lumki, bugungi kunda bozor iqtisodiyotini, shuningdek, bank sektorini davlat tomonidan tartibga solish konsepsiyasini rivojlantirish zarurligi xolisona ta'kidlanmoqda. Hozirgi tuzum favqulodda muhitlarda shakllanib, eskirgan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni barbod qildi. Hozirgi vaqtda bank sektorin faoliyatining har qanday davlat shakllanishining eng asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiritish mumkin. Mazkur sektorning samarali ishlashi butun iqtisodiyotni takomillashtirish vektorini belgilaydi. Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan o'zgarishlar munosabati bilan bank segmenti faoliyatida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Har qanday tashkilot faoliyatida uning faoliyati samaradorligini baholash tizimi ajralmas ahamiyatga ega. Keyingi vaqlarda mamlakat iqtisodiyotida bank sektorining roli ortib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Bu globallashuv jarayonlarining tezlashishi va natijada iqtisodiyot strukturasining murakkabligi bilan bog'liq. Bu jarayonlar bank tashkilotlarining biznes modellarining o'zgarishi va ekotizimlarning paydo bo'lishi bilan birga keladi. Bank tuzilmalari samaradorligini tahlil etish juda asosiy jarayondir, chunki banklar katta mablag'lar oqimini to'playdi va yo'naltiradi, umuman iqtisodiyotga ham, xususan jamiyatga ham ta'sir qiladi.

Istiqlolda bank tizimining moliyaviy barqarorligini va raqobatbardoshligini oshirishda banklar o'z faoliyatida daromadlarni diversifikatsiyalash va ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamini kengaytirish, shuningdek sanoat korxonalari bilan investitsion munosabatlarni rivojlantirish kabi masalalarga ustuvorlik berish kerak. Ushbu yo'nalishda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash jarayoniga ijobjiy ta'sir ko'rsatishga moliya va sanoat kapitali integratsiyasini kuchaytirish yordamida erishish mumkin.

**Natijalar:**

Moliya va sanoat kapitali integratsiyasini ta'minlash yordamida moliya-sanoat guruhlarini tashkil qilish yordamida bank faoliyatining diversifikatsiyalashuvi banklar daromadining oshishiga, investitsion salohiyatning yuksalishiga va kredit risklarini minimallashtirishga imkon yaratadi. Hozirgi vaqtda jahonda kapitalni jalb etish va qayta taqsimlash, vaqtincha bo'sh pul mablag'larini toplash va ularni joylashtirishda tijorat banklari yetakchi rol o'yndaydi.

Tijorat bankini takomillashtirish kredit tashkiloti faoliyatining xususiyatlari, bank faoliyati sifat ko'rsatkichlarining kelgusidagi o'sishi va yaxshilanishidagi ustuvorliklarni tanlash uning mijozlarini bank faoliyati amalga oshirilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlarni hisobga oluvchi iqtisodiy asoslangan va qat'iy ishlab chiqilgan depozit siyosatiga ishontirish kabi masalalarni ta'minlamay turib mumkin emas.

**Muhokama:**

Tijorat banklari foiz stavkalaridan har doim iqtisodiyotni makro va mikro darajada tartibga solish uchun qo'llaniladi. Agar iqtisodiyotni mikro darajada o'rghanadigan bo'lsak, tijorat banklari tomonidan foiz siyosatini qay darajada samarali ishlab chiqganligiga, ya'ni kredit va depozitlar bo'yicha o'rnatilgan foiz stavkalariga bog'liq bo'ladi.

Tijorat banklari tarafidan depozit operatsiyalarini amalga oshirish va bo'sh turgan moliyaviy mablag'larni jalb qilish bo'yicha bugungi vaqtda raqobat kuchaymoqda. Banklar tomonidan turli xil shartlar yordamida depozitlarning turlari oshib bormoqda. Milliy valyuta bilan bir qatorda xorijiy valyutadagi depozitlar ham keng takomillashmoqda.

**Xulosa:**

Xulosa ornida shuni aytish joizki, tijorat banklarida depozit siyosati samaradorligini baholash uslubiyati masalalarini o'rghanish asosida tijorat banklari resurs bazasida ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan qarz mablag'lari salmog'ining oshib borishi hamda jismoniy va yuridik shaxslardan jalb etilgan depozitlar salmog'ining kamayib borishi mazkur jarayonning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu holatni inobatga olgan holda, birinchidan tijorat banklari faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha talablarning kuchaytirilishi banklarni uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini topish bo'yicha tadbirlarni faollashtirishga imkoniyat beradi

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shermuxamedov B.U/ Tijorat banklarida depozit siyosati samaradorligini baholash uslubiyati “Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali”. 2020.
2. Malikova Dilrabo Muminovna, Burxanov Iskandar Shuhratovich Banklarning kredit portfeli va ularni samarali boshqaruv usullari. // JMBM. 2023.
3. Shermuxamedov B.U Tijorat banklari faoliyatida depozit siyosatini ishlab chiqish va joriy etishning xalqaro amaliyoti. Iqtisodiyot va ta'lif/ 2021.
4. Bektemirov Abdumalik, Malikova Dilrabo Muminovna, Pirnazarov Umid Narjigitovich. Banklarning kredit portfeli va ularni samarali boshqaruv usullari // JMBM. 2023.